



COMMUNICATION CULTURE IN THE VIRTUAL WORLD

Nilufar Azimova

National Philology University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek Foreign Philology
2nd year student of the faculty.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5515043>

ARTICLE INFO

Received: 05th September 2021
Accepted: 10th September 2021
Online: 15th September 2021

KEY WORDS

globalization, social networks, netiket, jargon, dialect, norm, sociolinguistics, speech culture.

ABSTRACT

In today's globalized Internet age, social networks such as Instagram, Telegram, Twitter, Facebook are of great interest and are widely used in Uzbekistan, as well as in all developed countries.

VIRTUAL OLAMDA MULOQOT MADANIYATI

Nilufar Azimova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-sentabr 2021
Ma'qullandi: 10- sentabr 2021
Chop etildi: 15- sentabr 2021

KALIT SO'ZLAR

globalshuv, ijtimoiy tarmoqlar, netiket, jargon, dialekt, me'yor, sotsiolingvistika, nutq madaniyati.

ANNOTATSIYA

Bugungi globallashgan internet asrida barcha rivojlangan mamlaktlar fuqarolari qatori O'zbekistonda ham, aholining barcha yosh qatlamlari tomonidan Instagram, Telegram, Twitter, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarga juda katta qiziqish bildirilib, keng miyosda foydalanib kelinmoqda.

Shu kabi ijtimoiy tarmoqlarni faqatgina ishtirokchilardan iborat va ular orasida o'zaro qiziqishlari, yoki faoliyatga doir mavzularda muloqot o'rnatiladigan, ko'p foydalanuvchili interaktiv veb saytlar asosida yaratilgan content sifatida talqin etadigan bo'lsak, unda foydalanuvchilar foto-video almashish, blog yuritish, turli

internet-hamjamiyatlariga birlashish vaqtida asosan bir-birlari bilan yozma chat ko'rinishida muloqot olib borishadi. Statistik ma'llumotlarga ko'ra, yurtimizda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining asosiy qismini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan insonlarni tashkil etar ekan. Virtual tarmoqlardagi yuqorida aytilgan kabi



EURASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES

Innovative Academy Research Support Center

www.in-academy.uz

yozishmalar davomida, odatda yoshlar tomonidan „vaqtini tejash” deya sharhlanadigan, o’zbek tilidagi juda ko’plab harflarni qisqartirib, ba’zida harfning ko’rinishini butunlay o’zgartirib ishilatuvchi, dialektal so’z yoki turli xil tarmoq jargonlaridan foydalanuvchilar soni bugungi kunda afsuski ko’payib bormoqda. Bu holatga misol sifatida „sh” harfining o’rniga o’zbek tilida umuman mavjud bo’lmagan - „w” harfini, „ch” harfining muqobiliga „c”, „q” ning o’rniga „4” raqami, „o” harfining nuqtachasini yozishga eringanlar esa shunchaki „6” raqamidan foydalanib qo’ya qolayotganini aytishimiz mumkin. Yana ba’zi hollarda esa unli tovushlarni umuman ishlatilmasdan „Nima- nm, deb-db, qilish-qlsh va shunga o’xshash juda ko’plab ona tilimiz imlo qoidalarini qo’pol ravishda buzib ishlatilyotganini ham guvohi bo’lmoqdamiz. Bu holat balki yoshlarnizning o’zaro do’stlar bilan muloqoti davomida unchalik e’tiborga olinmas, ammo, o’quvchi, talabalarning ularga ilm ulashish yo’lida harakat qilayotgan ustozlariga, farzandlarning ottonalariga, ishchilarning rahbarlariga nisbatan bo’lgan virtual muloqotida Netiket qoidalariga amal qilmaslik ularga nisbatan arzimas ma’nodek ko’rinsada „hurmatsizlik” hisoblanadi. Shu o’rinda „Netiket” atamasi haqida qisqacha ma’lumot berib o’tsak. Netiket (ingliz tilida - „netiquette”, „net” va „etiquette” so’zlarining birlashmasi) bu qisqa qilib aytganda online-muloqot davomida amal qilish kerak bo’lgan etiket qoidalari. Netiket qoidalari yozma muloqot davomida to’liq bosh yoki kichik harflardan foydalanmaslik , boshqalardan yordam so’rab murojaat qilinganda „Iltimos”, „Rahmat” kabi so’zlardan foydalanish, iloji

boricha qisqacha fikr bildirish, imloviy va grammatik qoidalarni tog’ri talqin qilish kabilarlarni o’z ichiga oladi. Ba’zi Yevropa davlatlarida, xususan, Germaniya, Buyuk Britaniya kabilarda bu atama aohida fan sifatida ham o’qitiladi. Netiket qoidalariiga amal qilish har qanday kishini savodsiz inson sifatida ko’rinishini oldini oladi.

Undan tashqari, aksariyat hollarda yoshlarimiz tomonidan adabiy til qoidalariiga deyarli amal qilmasdan, online-muloqot davomida turli xil , o’z hudud yoki elatlariiga mansub dialektlardan ham keng foydalanilyotganini guvohi bo’moqdamiz. Ma’lumot sifatida dialekt hamda adabiy til atamalarini sharhlab o’tsak. Dialekt (grek. diaiekto — sheva, lahja) umumxalq tilining hududiy, ijtimoiy jihatdan umumiylikka ega bo’lgan kishilar foydalanadigan ko’rinishi; bir-biriga yaqin shevalar majmui. Dialekt o’rnida ilmiy manbalarda lahja termini ham ishlatiladi. [1;135] Sotsiolingvistik tipologiyada Tilning grammatikasi va luftatini yaratishga xizmat qiluvchi standartlashtirish mezoni mavjud bo’lib, bunda ma’lum bir tilda gaplashuvchilar tomonidan tan olingan adabiy til tushuniladi.[2; 10] Demak, har birimizning ona tilimiz bo’lgan O’zbek tilida ham adabiy til mavjud bo’lib, televideniya, radio, internet kabi ommaviy axborot vositalarida to’liq adabiy til me’yorlariga amal qilinishi kerak. Me’yor esa bu til birliklarini u yoki bu ko’rinishida jamiyat tomonidan aniqlangan, belgilangan ishlatilish imkoniyat va qonuniyatları. [3; 171] Bunga rioya etmaslik esa, ba’zi holatlarda ikki-xil sheva vakillari o’rtasida tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Keling shu kabi holatdan qisqacha misol keltirsak, Buxoro shevasida



EURASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES

Innovative Academy Research Support Center

www.in-academy.uz

"taxlamoq" fe'li biror ishni bajarmoq ma`nosida qo'llanadi. Bu so'z boshqa o'zbek shevalarida "biror narsani ustma-ust tartibda qo'yemoq" ma`nosini beradi. [4; 50] Aytaylik, bir buhorolik talaba o'z xonadosh do'stiga, yodidan ko'tarilib xonada qolib ketgan, uning ustiga chala qolgan maqolasini imtihonga kirish navbat yetgunchga „taxlash”ni, iltimos qilib Telegram messenjeri orqali yozdi, imtihonga kam vaqt qolganda kelib qarasa, surxondaryolik do'sti maqolani pala-partish yotgan varoqlarini olib, chiroyli qilib ustma-ust „taxlab” qo'yibdi. Bu holatni kelib ko'rgan birinchi talaba hafsalasi pir bo'ladi, to'liq „taxlanmagan” maqola bilan imtihonga kiradi va afsuski undan o'ta olmaydi. Shundan so'ng u xonadoshidan aytganini qilmagani uchun qattiq ranjiydi. Chunki u dos'tidan maqolani qolgan qismini yozib, tugal bajarib qo'yishini iltimos qilgan, ammo shevada gapirayotgani hayoliga kelmagan edi. Xo'sh, aslida bu holatda kim aybdor? Albatta, shevada gapirgan talabaning o'zi. Chunki, agar u adabiy til qoidalariга rioya etgan holda, o'z shevasidagi „taxlamoq” fe'lining o'rniga „yakunlamoq, tugatmoq” kabi so'zlarni ishlatganda yuqorida holat yuz bermagan bo'lardi. Yuqorida keltirib o'tilgan muammolarni lingvistik jihatdan tahlil etadigan bo'lsak, beixtiyor tilshunoslikning sohasi bo'lgan „Sotsiolingvistika” atamasiga murojaat etishimizga to'g'ri keladi. Sotsiolingvistika- (lot. *societas-jamiyat+linguistics lingvistika*) tilshunoslik va sotsiologiya fanlari aloqasi asosida yuzaga kelgan bo'lib, tilning ijtimoiy tabiyati, ijtimoiy vazifalarini, til taraqqiyotidagi ekstra lingvistik omlilarni, til siyosatini, lisoniy muhitni hamda tilning jamiyat hayotidagi o'rni bilan bog'liq muammolarni

o'rganuvchi soha. [5; 27] Globallashuv davrida lisoniy muhitga ilm-fan va texnika ta'sirining ijobiy va salbiy qirralarini, buning sabablarini, ona tiliga munosabat, tilning sofligi, nutq madaniyati va imloviy savodxonlik muammolarini o'rganish sotsio-lingvistikaning muhim vazifasidir". [6; 32] Umid qilamizki sotsiolingvistlar shu kabi muammolarni ko'rib chiqib, yoshlarni to'g'ri yo'lga targ'ib etuvchi alternativ g'oyalarni yuzaga chiqarishadi. Xulosa o'rnida, A.Mamatovning quyidagi mulohazalarni bayon qilib o'tsak: «Yoshlarning adabiy til normalariga amal qilgan holda so'zlashi, nafaqat ularning o'qimishliligidan darak beradi, balki ayni vaqtida aqli va madaniyatliligin ham ko'rsatadi. Shuning uchun yoshlar hamma vaqt nutq madaniyati va nutq odobiga qat'iy rioya qilgan holda so'zlashga harakat qilishlari lozim. Talaffuz etilgan har bir tovush, so'z, ibora, aniq va ravon jaranglashi kerak. Yoshlarning notiq bo'lishi shart emasdir, lekin faqat fikrini, tushunchalarini to'g'ri, aniq iboralar bilan ifoda qilishlari zarur, chunki ona tilimizning sofligini saqlash har bir yosh avlodning sharafli burchidir». Demak, garchi u og'zaki yoki yozma bo'lmasin, bizning qay darajada o'z ona tilimizni hurmat qilishimiz yohud madaniyat sohibi ekanligimiz aynan qanday saviyada nutqimizni bayon qilishimizga chambarchas bog'liqdir .Balki, tarmoqlardagi qisqartmalar, jargonlar, mavjud bo'lish huquqiga egadir, ammo shuni unutmaylikki, undagi muloqotning asosiya maqsadi ona tilimizda mavjud harflardan foydalanib, hududiy shevalarni iloji boricha foydalanmagan holda , fikrimizni mazmunli, aniq holda bayon etishga qaratilgan.



EURASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES

Innovative Academy Research Support Center

www.in-academy.uz

jarayonlari alohida o'r ganildi va hozirda
ham shu bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar davom
etmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosirjon Uloqov - „Tilshunoslik nazariyasi”. Toshkent 2016.
2. Karimov. S.A. - „Tilshunoslik nazariyasi fanidan ma'ruzalar to'plami”. Samarqand 2012.